

**INKLYUZIV TA'LIMDA BAHOLASH MEZONLARINI ISHLAB
CHIQISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

**METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING
ASSESSMENT CRITERIA IN INCLUSIVE EDUCATION**

Umizoqova Sarvinoz Ulug'bek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti

Pedagogika yo'nalishi talabasi

Umizoqova Sarvinoz Ulug'bek qizi

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Pedagogy

Student of the Pedagogy Department

Axmedova Shirinjon Zafar qizi

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Pedagogy

Student of the Special Pedagogy Department

Axmedova Shirinjon Zafar qizi

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Pedagogy

Student of the Special Pedagogy Department

Sirojiddinov Odiljon Ilxomjonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti

Maktab menejmenti yo'nalishi talabasi

Sirojiddinov Odiljon Ilxomjonovich

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Pedagogy

Student of the School Management Department

Annotatsiya: Inklyuziv ta'limda baholash me'zonlarini ishlab chiqarish- bu nafaqat pedagogika, balki psixologik ijtimoiy va metodik jihatdan murakkab jarayon. To'g'ri ishlab chiqarilgan baholash tizimi bolaning imkoniyatlarini to'liq ochib berishda, uning ijtimoiylashuvini qo'llab-quvvatlashda va o'quv jarayonini samarali tashkil etishda kalit bo'la oladi. Baholashning asosiy maqsadi-o'quvchini tekshirish emas, balki uni rivojlantirish uning individual ta'lim yo'nalishini aniqlash va o'sish dinamikasini kuzatishdir. Shu bois inklyuziv muhitda baholash moslashuvchan, shaffof, ilmiy asoslangan va o'quvchi imkoniyatiga mos bo'lishi zarur.

Kalit soʻz: Inklyuziv taʼlim, individual, metodologik, mezon, , psixolog, defektolog pedagog, intellektual, emotsional.

Annotation: Developing assessment criteria in inclusive education is not only a pedagogical task but also a psychologically, socially, and methodologically complex process. A properly developed assessment system can become a key factor in fully revealing a child's potential, supporting their socialization, and ensuring the effective organization of the learning process. The main goal of assessment is not to test the learner, but to develop them, determine their individual learning pathway, and monitor their growth dynamics. Therefore, assessment in an inclusive environment must be flexible, transparent, scientifically grounded, and adapted to the learner's abilities.

Keywords: Inclusive education, individual, methodological, criteria, psychologist, defectologist, pedagogue, intellectual, emotional.

Аннотация: Разработка критериев оценки в инклюзивном образовании — это не только педагогическая, но и психологическая, социальная и методическая сложная деятельность. Правильно разработанная система оценивания может стать ключом к полному раскрытию возможностей ребёнка, поддерживать его социализацию и обеспечивать эффективную организацию учебного процесса. Основная цель оценивания — не проверка ученика, а его развитие, определение индивидуальной образовательной траектории и отслеживание динамики роста. Поэтому оценивание в инклюзивной среде должно быть гибким, прозрачным, научно обоснованным и соответствующим возможностям обучающегося.

Ключевые слова: Инкузивное обучение, индивидуальное, методологическое, критериальное,, психолог, педагог-дефектолог, интеллектуальное, эмоциональное.

KIRISH

Bugungi kunga kelib inklyuziv taʼlimga boʻlgan ehtiyojlar ortib bormoqda. Inklyuziv taʼlimda oʻquvchilarning individual rivojlanish xususiyatlari, oʻquv imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaffof, adolatli va moslashtirilgan baholash mezonlarini ishlab chiqarishning nazariy- metodologik asoslarini oʻrganish hamda amaliy qoʻllanmalar yaratilmoqda.

ASOSIY QISM

Zamonaviy taʼlim tizimida har bir oʻquvchining individual xususiyatlari va taʼlimiy ehtiyojlarini inobatga olish dolzarb mavzu sanaladi. Inklyuziv taʼlim- bu maxsus ehtiyojli bolalarni umumtaʼlim jarayoniga toʻliq jalb qilish, ularga toʻliq imkoniyat yaratish va shaxs sifatida rivojlanishiga sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Asosiy e'tibor bolaning imkoniyatiga, potentsialligi va rivojlanish sur'atiga qaratilgan. Oddiy ta'limda baholash ko'proq natijani o'lchashga qaratilgan bo'lsa, dinamika va o'sish, inklyuziv ta'limda baholash jarayoniga qaratilgan. Har bir o'quvchi rivojlanish darajasi va qobiliyatlari, imkoniyatlariga ko'ra baholanadi.

Inklyuziv ta'lim g'oyasi shundaki, har bir o'quvchi aqliy yoki jismoniy zarari bo'ladimi yo yo'qmi- teng ta'lim olish huquqiga ega. Inklyuziv ta'lim quydagilarni nazarda tutadi.

- Ta'limda tenglik

- Diskriminatsiyasiz o'qitish

- o'quvchining qobiliyatiga moslashtirilgan o'quv rejalar

- differential yondashuv

- Logoped, psixolog va defektolog bilan hamkorlik

“Baholash tizimi har bir bolaning rivojlanish suratiga moslashtirilishi kerak. Standart baholash o'rniga moslashtirilgan individual yondashuv zarur”.[1]

Moslashtirilgan baholash tizimi orqali har bir bolaning individual rivojlanish jadalligini ko'rib olamiz. Ularni qay darajada rivojlanish izchilligini belgilanadi va aynan shu metod pedagoglar uchun juda katta ustuvorlik beradi. Inklyuziv ta'imga muhtoj bolani boshqa bolalardan ajralib chiqqan tomonlarini alohida o'rganib korreksiya qilish yoki bo'lmasa aynan ajralib turuvchi talantni rivojlantirish orqali uni jamiyatga yaqinlashtirish uchun ham bolani ichki va tashqi baholash ko'nikmalari barcha pedagoglarda mukammal shakllangan bo'lishi lozim. Inklyuziv ta'limda har bir bola, hatto jiddiy rivojlanish chekloviga ega bo'lsa ham, ta'lim olishda teng huquqiga ega. Baholash jarayoni ham diskriminatsiyasi ham adolatli va moslashtirilgan bo'lishi shart. Inklyuziv baholash natija emas, jarayonni baholaydi o'quvchining kundan kun qanday rivojlanayotgani qaysi ko'nikma yaxshilanganligi yoki qaysi bosqichda qiyinchilik borligi hisobga olinadi.

Vigodskiy nazariyasiga ko'ra, har bir bolaning o'z rivojlanish zonasi mavjud. To'g'ri baholash mezonlari aynan “yaqin rivojlanish zoni”ga belgilanadi. Pedagogik diagnostika bolaning intellektual emotsional sensor-motor nutqiy rivojlanishini aniqlashga asoslanadi. “Moslashtirilgan baholash- nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun adolatli yondashuv”.[2] Nogironligi bo'lgan o'quvchilarning o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon qilishga imkon beruvchi baholash usullarining o'zgartirilishidir. Har bir o'quvchi o'z bilim va ko'nikmalarini baholashda baravar imkoniyatga ega bolishi kerak. Moslashtirish nogironligi natijasida yuzaga kelgan cheklovlarni bartaraf etadi. Baholash jarayonida qobiliyatlar va erishilgan natijalar asosida baholanadi, nogironlik emas.

Inklyuziv talim tamoyillariga movofiqlik:

-Har bir bola talim olish huquqiga ega

-Baholash ham ta'limning ajralmas qismidir

-Individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda adolatli baholash

Psixologik jihatdan qo'llab quvvatlash

Oquvchining oziga ishonch hissini oshiradi

Stress va tashvishni kamaytiradi

Ta'lim jarayonida ijobiy munosabatni shakllantiradi

Moslashtirish turlari:

-vaqtni uzaytirish;

- alternativ javob berish usullari;

-texnik yordam vositalaridan foydalanish matnlarni soddalashtirish yoki vizual qo'llanmalar berish;

-ta'lim xodimlarining mas'ulyati;

-pedagoglar individual yondashuv qo'llay olish kerak.

Moslashtirish usullarini to'g'ri tanlash va qo'llash shaffoflik va javobgarlik tamoyillariga rioya qilish

Moslashtirilgan baholash nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun haqiqatan ham eng adolatli yondashuvdir.

Ta'limning bu shaklida baholashning asosiy farqi- standart baholashdan vos kechish va o'quvchini o'z rivojlanish dinamikasi bo'yicha baholashdir. An'anaviy ta'limda o'quvchi qiyosiy baholash emas, individual baholanadi. Inklyuziv talimda esa o'quvchi faqat o'zining oldingi natijalari bilan solishtiriladi, orqaga nazar tashlash orqali bolaning motivatsiyasi oshirilib boradi. Bu o'z o'zidan shaxsiy o'sish darajasini hisobga olinadi, "Har kimning rivojlanish sur'ati o'ziga xos" degan tamoyil amal qiladi. O'quvchi o'z imkoniyatiga qarab: osonlashtirilgan, moslashtirilgan yoki qo'shimcha yordamchi vositalar bilan bajariladigan topshiriqlar tayyorlanadi. Shu boisdan maxsus bolaga qiyoslash metodi biroz notog'ri yondashuv bo'lib qoladi. Agar pedagog bu usuldan imkoniyati cheklangan bola bilan ishlaganda uzluksiz foydalansa bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi sustlashishi yoki umuman o'zini kamsitilgandek tutishi mumkin. Bu esa o'z o'zidan boladagi shijoatni so'ndiradi va layoqatni batamom yo'qqa chiqarishi mumkin bo'ladi.

Maxsus bola bilan ishlashda samarador usul sifatida “Portfolio baholash” metodidan foydalanish ham samarali usullardan hisoblanadi. Bunda o‘quvchi ishlari to‘plami yaratiladi. Daftar, rasmlar, loyihalar, test natijalari individual o‘shish hujjatlashtiriladi. Ba’zi o‘quvchilar uchun test yoki yozma topshiriqlar og‘ir bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ularning bilimlari suhbat orqali aniqlaniladi. Agar bola suhbatga kirishishni istamasa maxsus pedagog u bilan rasm va chizma shakldagi metodologiyalardan foydalanishi tavsiya etiladi.

XULOSA

Baholash me’zonlarini inklyuziv ta’limga moslashtirish murakkab jarayon. Ko‘p sohalarga asoslangan jarayon bo‘lib, unda psixologik, pedagogik, ijtimoiy va tibbiy yondashuvlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llaniladi. Metodlar ishlab chiqishdan maqsad bola imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, uni rivojlantirish, rag‘batlantirish va jamiyatga qo‘shish sanaladi.

Inklyuziv ta’limda baholash tizimini individual ehtiyojlar va rivojlanish sur’atlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat o‘quvchining bilim darajasini, balki uning shaxsiy qobiliyatlari, ijtimoiy ko‘nikmalari va motivatsiyasini hisobga olishni talab qiladi. Moslashtirilgan baholash orqali pedagoglar har bir bolaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularga to‘g‘ri yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, baholash jarayoni o‘quvchining psixologik holatini qo‘llab-quvvatlaydi, stress va tashvishni kamaytiradi, ijobiy o‘quv muhitini shakllantiradi. Portfolio baholash, suhbat va vizual metodlar kabi vositalar maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarni to‘liq rivojlantirishda samarali yondashuvdir. Umuman olganda, inklyuziv ta’limda baholash – bu nafaqat natijani o‘lchash, balki o‘quvchining o‘shish jarayonini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va jamiyatga moslashuvini ta’minlash mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Shu bois, moslashtirilgan va individual yondashuv inklyuziv ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Хамдамова, Г.А. ва бошқалар. *Инновацион менеджмент*. Ўқув қўлланма. Т.: Экономика – молия, 2018.
2. Полатов, Ш.П. *Инновацион ёндашув орқали таълимни бошқариш ёки илмий-методик бошқарув*. Т.: Ёш куч, 2022.
3. Перегудов, Л.В., Саидов, М.Х. *Олий таълим: менеджмент ва иқтисодиёт*. Т.: Финанс, 2007.
4. Ҳусейнова, М.Р. *Инклюзив таълимда педагогик диагностика ва баҳолаш усуллари*. Т.: Илм-фан, 2020.
5. Султонов, Б.Ҳ. *Мактабда индивидуал ривожланишни баҳолаш усуллари*. Т.: Ўқитувчи, 2019.

6. Мирзаев, А. *Инклюзив таълимда дифференциал ёндашув*. Т.: Ўзбекистон, 2021.
7. Юсупов, Д. *Мактаб педагогикасида адаптив баҳолаш ва усуллар*. Т.: ИЛМ, 2020.
8. Абдурахмонов, Ш.М. *Педагогик диагностика ва индивидуал ривожланиш monitoringi*. Т.: ТДПУ, 2019.